



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3266-4  
2025 - yil 28 - Mart

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI  
HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH  
DEPARTAMENTING

QARORI

**To'lov tizimlari operatorlari, elektron pullar tizimlari operatorlari  
va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni  
legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy  
qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish  
bo'yicha ichki nazorat qoidalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar  
kiritish haqida**

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi va "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruv va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruv va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2020-yil 24-iyundagi 357-V va 13-son qarori (ro'yxat raqami 3266, 2020-yil 30-iyun) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y, 10/20/3266/1110-son) bilan tasdiqlangan To'lov tizimlari operatorlari, elektron pullar tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga ilovaga muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

O'zbekiston  
Respublikasi Markaziy  
banki Raisi  
28-Fevral 2025-yil  
357-B-4 son



ISHMETOV TIMUR  
AMINDJANOVICH

O'zbekiston  
Respublikasi Bosh  
prokurori o'rinbosari -  
Iqtisodiy jinoyatlarga  
qarshi kurashish  
departamenti boshlig'i  
14-Fevral 2025-yil  
11 son



SOXIBNAZAROV  
SHAMSIDDIN  
SHARAFIDINOVICH

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki boshqaruvining  
2025-yil 28 fevraldagi 357-B-4-son va  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi  
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi  
kurashish departamentining  
2025-yil 14 fevraldagi 11-son qaroriga  
ILOVA

**To'lov tizimlari operatorlari, elektron pullar tizimlari operatorlari  
va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni  
legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy  
qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish  
bo'yicha ichki nazorat qoidalariga kiritilayotgan qo'shimcha va  
o'zgartirishlar**

1. 1-band quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“**nominant** – jismoniy (jismoniy shaxslar guruhi) yoki yuridik shaxs tomonidan uning nomidan tashkilotga nisbatan muayyan maqomda ish yuritish uchun tayinlangan jismoniy yoki yuridik shaxs;

**nominator** – nominantga bevosita yoki bilvosita o'z nomidan rahbar yoki ta'sischi/aksiyador sifatida harakat qilish to'g'risida ko'rsatma beradigan jismoniy (jismoniy shaxslar guruhi) yoki yuridik shaxs;

**aniqlik darajasi** – to'lov tizimi operatorlari, elektron pullar tizimi operatorlari, to'lov tashkilotlarining avtomatlashtirilgan axborot tizimlarida operatsiya ishtirokchilaridan birining identifikatsiya ma'lumotlari Ro'yxatdagi shaxslarning identifikatsiya ma'lumotlari bilan solishtirish jarayonida mos kelish darajasini ifodalovchi ko'rsatkich;

**o'xshash holatlar** – operatsiya ishtirokchilarining identifikatsiya ma'lumotlari Ro'yxatdagi shaxslarning identifikatsiya ma'lumotlari bilan qisman mos kelishi.”.

2. 4-bandda:

quyidagi mazmundagi o'ninchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Ro'yxatga kiritilgan shaxslarning operatsiyasini aniqlash hamda ushbu operatsiyalarni kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan to'xtatib turish

(yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno) va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish hamda to'xtatib turilgan operatsiyalarni va ishga solmay to'xtatib qo'yilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklarni doimiy nazorat va monitoring qilish tartibi;”;

o'ninchi – o'n to'qqizinchi xatboshilar tegishli ravishda o'n birinchi – yigirmanchi xatboshilar deb hisoblansin.

3. Quyidagi mazmundagi 17<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“17<sup>1</sup>. To'lov tashkilotlari quyidagi hollarda mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha mustaqil ravishda chora-tadbirlarni ko'rishlari kerak:

a) xo'jalik va fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni o'rnatishda, shu jumladan: jismoniy shaxs to'lov tashkiloti mobil ilovasi orqali akkaunt ochish uchun murojaat qilganda;

tovar va xizmatlarni yetkazib beruvchi subyektlar elektron terminaldan (E-POS) foydalanish uchun murojaat qilganda;

b) bir martalik operatsiyalar, shu jumladan ular o'zaro bog'liq bo'lgan bir yoki bir nechta operatsiyani bajarish orqali amalga oshirilayotgan quyidagi hollarda:

bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravariga teng yoki undan oshgan summada to'lov tashkiloti mobil ilovasida akkaunt ochmasdan yoki mobil ilovasidagi akkaunt dan foydalanmasdan, operatsiyalarni amalga oshirishda;

mazkur Qoidalarning 31<sup>2</sup>-bandi birinchi xatboshisida nazarda tutilgan pul o'tkazmalarini bajarishda yoki qabul qilishda;

v) mijoz to'g'risida avval olingan ma'lumotlarning to'g'riligiga yoki yetarli ekanligiga nisbatan gumonlar mavjud bo'lganda.”.

4. Quyidagi mazmundagi 23<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“23<sup>1</sup>. To'lov tizimlari operatorlari, elektron pullar tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari axborot tizimlaridagi aniqlik darajasini har bir xizmat yoki operatsiya toifasining tavakkalchilik darajasidan kelib chiqqan holda belgilashi kerak.

Aniqlik darajasi operatsiya ishtirokchilari identifikatsiya ma'lumotlarining har bir elementi bo'yicha alohida belgilanishi lozim.”.

5. Quyidagi mazmundagi 28<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“28<sup>1</sup>. To'lov tizimi operatori, elektron pullar tizimi operatori va to'lov tashkiloti yuridik shaxslarni lozim darajada tekshirish jarayonida mijozning direktori yoki ta'sischilari (aksiyadorlari, ishtirokchilari) nominant ekanligini aniqlagan taqdirda, bu haqida va nominator to'g'risida maxsus vakolatli davlat organiga xabar berishi lozim.”.

6. 31-bandning to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“jo'natiladigan pul o'tkazmalarini mijoz-jo'natuvchi haqidagi va oluvchi haqidagi aniq ma'lumotlar bilan birga mazkur Qoidalarning 31<sup>2</sup>-bandida belgilangan talablarga muvofiq yuborilishini ta'minlashlari;”.

7. Quyidagi mazmundagi 31<sup>2</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“31<sup>2</sup>. Bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravariga teng yoki undan oshgan summadagi yuborilayotgan ichki elektron pul o'tkazmalari bo'yicha ma'lumotlarda jo'natuvchining nomi, jismoniy shaxslar uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-karta yoxud ularning o'rnini bosadigan boshqa hujjat) seriyasi va raqami, agar operatsiya jarayonida hisobvaraqlar ishlatilgan bo'lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami, jo'natuvchining manzili yoki soliq to'lovchining identifikatsion raqami yoxud mijozning identifikatsiya raqami, jismoniy shaxslar uchun esa - tug'ilgan sanasi va joyi va oluvchi haqidagi (oluvchining nomi; agar operatsiya jarayonida hisobvaraqlar ishlatilgan bo'lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) aniq ma'lumotlar bilan birga yuborilishini ta'minlashlari kerak, jo'natuvchi to'g'risidagi to'liq ma'lumot oluvchi bank tomonidan boshqa manbalar orqali olinishi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno. Bu holatda jo'natuvchi to'lov tashkilotlariga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini, shuningdek hisobvaraqlarning raqami yoki operatsiyaning xos raqamini (identifikator) qo'shib qo'yish yetarli, agar ushbu hisobvaraqlarning raqami yoki identifikator operatsiyani jo'natuvchi yoki oluvchigacha kuzatib borish imkonini bersa.

To'lov tashkilotlari bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravaridan oshmagan summadagi ichki elektron pul o'tkazmalarini jo'natuvchi haqidagi (jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, agar operatsiya jarayonida hisobvaraqlar ishlatilgan bo'lsa, u holda ushbu

hisobvaraqlarning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) va oluvchi haqidagi (oluvchi yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, agar operatsiya jarayonida hisobvaraqlar ishlatilgan bo'lsa, u holda ushbu hisobvaraqlarning raqami yoki operatsiyaning xos raqami) ma'lumotlar bilan birga yuborilishini ta'minlashlari kerak.

To'lov tashkilotlari mazkur Qoidalarning 49-bandiga muvofiq pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkdan foydalanishga ruxsat berilgan operatsiya sifatida ichki elektron pul o'tkazmalarini amalga oshirishda tomonlardan birini Ro'yxatga kiritilgan shaxs ekanligi haqidagi ma'lumotlar bilan birga oluvchi bankka yuborilishini ta'minlashlari kerak.”.

8. 37-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“37. Operatsiyalar quyidagi mezon va alomatlarining biri mavjud bo'lganda, to'lov tashkiloti yoki elektron pullar tizimi operatorlari tomonidan shubhali deb tan olinadi.”;

o'n ikkinchi xatboshidan “to'lov tizimlari operatorlari,” degan so'zlar chiqarib tashlansin.

9. 41-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“To'lov tizimlari operatorlari tijorat bankidan jismoniy shaxsga bank kartasini ochish bo'yicha topshiriq kelib tushganda, ularning identifikatsiya ma'lumotlarini Ro'yxat bilan solishtirishlari shart.”.

10. 2-ilovanning 9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Elektron ko'rinishdagi mijoz anketasini to'ldirgan xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi.”.